



## ARTICLE INFO

Received: 09<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 13<sup>rd</sup> May 2025

Online: 14<sup>th</sup> May 2025

## KEYWORDS

Davlatmamat Ozodiy's  
mysticism, morality,  
enlightenment, Turkmen  
literature, Makhtumkuli  
Pyragy, "Wagzy-azat",  
religious ideas.

## THE LITERARY AND SPIRITUAL HERITAGE OF DAVLATMAMAT AZODIY AND HIS PLACE IN PYRAGY'S CREATION

**Kakisheva Gulnur Annadurdiyevna**

Student of the 3<sup>rd</sup> group of the Turkmen language and literature  
department of the Faculty of Turkic languages of the Nukus State

Pedagogical Institute named after Ajinyoz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15407994>

## ABSTRACT

*This article analyzes the life, literary heritage of one of the outstanding representatives of Turkmen literature of the 18<sup>th</sup> century, Davlatmamat Ozodiy, and his influence on the work of his son Makhtumkuli Pyragy. The religious and moral ideas in Davlatmamat's works, mystical thinking, call for science and enlightenment, and artistic methods aimed at awakening public awareness are revealed.*

## DAVLATMAMAT OZODIYNING ADABIY-MA'NAVIY MEROSI VA UNING PYRAGY IJODIDAGI O'RNI

**Kakisheva Gulnur Annadurdiyevna**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
institutini Turkiy tillar fakulteti Turkman tili va  
adabiyoti yo'nalishi 3-D guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15407994>

## ARTICLE INFO

Received: 09<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 13<sup>rd</sup> May 2025

Online: 14<sup>th</sup> May 2025

## KEYWORDS

Davlatmamat Ozodiyning  
tasavvuf, ahloq, ma'rifat,  
turkman adabiyoti,  
Mahtumquli Pyragy,  
"Wagzy-azat", diniy  
g'oyalar.

## ABSTRACT

*Ushbu maqolada XVIII asr turkman adabiyotining atoqli vakillaridan biri Davlatmamat Ozodiyning hayoti, adabiy merosi va uning o'g'li Mahtumquli Pyragy ijodiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Davlatmamat asarlaridagi diniy-axloqiy g'oyalar, tasavvufiy tafakkur, ilm-ma'rifatga da'vat va xalq ogohliligini uyg'otishga qaratilgan badiiy uslublar ochib beriladi.*

Turkman adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan mutafakkirlardan biri Davlatmamat Ozodiydir. U nafaqat shoir, balki ulamo, pedagog va mutasavvif sifatida ham shuhrat qozongan. Davlatmamat Ozodiy XVIII asrda yashab, og'ir ijtimoiy va siyosiy sharoitlarda xalqni ilm, ahloq, birlik va ma'rifat yo'liga boshlovchi ulug' siymo bo'lgan. Uning asarlari o'z zamonasida nafaqat diniy-falsafiy ahamiyat kasb etgan, balki adabiy jihatdan ham muhim estetik mezonlarni belgilagan. Davlatmamat Ozodiy o'zining badiiy merosi bilan keyinchalik



o'g'li Mahtumquli Pyragy ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Maxtumquli buyuk shoir bo'lib yetishishida ham avvalo uning otasi katta o'rin tutgan, desak yanglishmaymiz.

Davlatmamat Ozodiy o'zining boy va mazmunli ijodi bilan taklif o'g'li Maxquli Pyragy ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Maxtumqulining ulug' shoir bo'lib kamol topishida, eng avvalo, otasining ibratli hayoti va badiiy merosi muhim o'rin tutganini alohida ta'kidlash joiz. Davlatmamat Ozodiy 1654-yilda Kopetdog' tog'lari etagidagi Hoji Govshan qishlog'ida tug'ilgan. U egarchilik bilan shug'ullangan. Maxtumquli tug'ilganda Davlatmamat qirq yoshga kirgan edi. U farzandiga Davlatmamat ismini bergan. Afsuski, farzandi atigi 12 yoshga yetganida, u hayotdan ko'z yumgan. Rivoyatlarga ko'ra, bir kuni Davlatmamat tush ko'radi. Tushida Payg'ambarimiz Muhammad (sav) unga ko'rinib, "Sen do'zaxdan ozodsan", degan emishlar. Shu voqeadan so'ng u "Ozodiy" taxallusini qabul qilgan. Davlatmamat Ozodiy milliy zargarlik va tabobat sirlarini mukammal egallagan, balki qishloq maktabida bolalarga ta'lim bergan bilimli inson bo'lgan. Shu bois uni xalq orasida hurmat bilan "Mulla Davlatmamat" deb atashgan.

Davlatmamat Ozodiy XVIII asrda yashab, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik bo'lmagan sharoitda xalqni ma'rifat, axloq va birlikka da'vat qilgan. U ilk saboqlarni qishloq maktabida olib, keyin Xiva madrasalarida tahsil olgan. Arab va fors tillarini o'rganib, ilm-fanga chuqur sho'ng'igan. U o'z o'g'li Mahtumquliga doimo ilm-fan, ahloqiy tarbiya haqida saboq bergan. Mahtumqulining dunyoqarashi va poetik dunyosi aynan otasining ruhiy-ma'naviy tarbiyasi bilan bog'liq bo'lib, otasining g'oyalari davom ettirgan. Azadynyň tasavvufiy qarashlari, inson va Alloh o'rtasidagi ruhiy bog'liqlik, qalb pokligi haqidagi g'oyalari Pyragynyň she'riyatida ham chuqur aks etadi.

Davlatmamat Ozodiy kuchi eski maktabda, so'ngra Xiva madrasasida taxsil olgan. U arab va fors tillarini chuqur o'rganib, o'rganish madrasada mudarrislik (o'qituvchilik) faoliyati bilan shug'ullangan. Ozodiy xalq og'zaki ijodi namunalarini, Sharq adabiyoti klassik asarlarini puxta o'zlashtirgan va hujjat ijodiy ta'sirida, ruboiy va g'azallar bitgan. Ozodiyning ijodida 1753–1754-yillarda 6000 misrali ilmiy-dostoniy asar — "Wagzy-azat" alohalohida o'rin tutadi. Bu asar masnaviy janrida yozilgan bo'lib, to'rt bobdan iborat:

1. Birinchi bob — mamlakatda tartib-intizom o'rnatish ishlariga bag'ishlangan;
2. Ikkinchi bob — qal'a va saroylar qurilishi haqida so'z yuritadi;
3. Uchinchi bob — jamiyatda ilm-fan va ma'rifatning ahamiyati yoritiladi;
4. To'rtinchi bob — kambag'allar, sahifalar, jamiyatdagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

Asarda turkman kabilalarini birlashtirish, soliqlarni kamaytirish, kanallar o'tkazish, yo'l va ko'priklar qurish kabi masalalar aks etgan

Ozodiy asarlarida asosiy mavzular Allohga muhabbat, insoniy poklik, sabr-toqat, ilm-ma'rifat, axloqiy tarbiya, zulmga qarshi adolatparvarlik g'oyalari bilan uyg'undir. U xalqni ilmi, ogoh, pok axloqli bo'lishga undagan. Uning she'rlari diniy didaktika bilan birga estetik mukammallikni ham o'zida mujassam etgan.


Davlatmamat Ozodiy ijodi Mahtumquli Pyragy uchun mustahkam poydevor bo'lgan. Davlatmamat Ozodiy o'g'lini yoshlikdan bilimga undagan, uni turli madrasalarga yuborgan. Mahtumquli shoir sifatida otasidan ilhom olgan, uning ma'naviy, falsafiy va badiiy g'oyalari o'z ijodida davom ettirgan. Azady va Pyragy ijodi uyg'un holda xalqni uyg'otishga, birlik va taraqqiyot sari boshlashga xizmat qilgan. Azadynyň tasavvufiy qarashlari, Alloh bilan inson



o'rtasidagi yaqinlik, qalb pokligi va ruhiy kamolotga da'vati Pyragynyň asarlarida chuqur aks etadi.

Davlatmamat Ozodiy turkman adabiy tafakkurining poydevorchilaridan biridir. Uning ijodi ma'naviy yuksaklik, axloqiy yetuklik va diniy-falsafiy chuqurlik bilan ajralib turadi. Shoirning asarlari xalqning axloqiy uyg'onishi, ma'rifiy rivoji va diniy bilimlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Mahtumquli Pyragynyň shakllanishida otasi Azady ijodining beqiyos ta'siri bo'lgan. Azady-Pyragy an'anasi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, balki milliy ma'naviyatning abadiy ramziga aylangan.

### References:

1. Döwletmyradow, G. Dowletmämmet Azady. – Aşgabat: Ylym, 1990.
2. Gadoyev, G. Turkman adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 1999.
3. Annagurbanow, B. Türkmen klassyklarynyň döredijiligi. – Aşgabat: Magaryf, 2004.
4. Xushvaqto'v, S. Turkman adabiyoti va Maxtumquli ijodi. – Samarqand: Zarafshon, 2001.
5. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ozodiy\\_Davlatmamed](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ozodiy_Davlatmamed)
6.  (<https://allomalar.uz/>)